



## ZARAUTSOY QOYATOSH SURATLARINING SIRLARI

Ro'ziyev Samandar,  
Xolmurodova Munisa,  
Xursanova Farangiz,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7456229>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> December 2022  
Accepted: 18<sup>th</sup> December 2022  
Online: 19<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

Zaraut , Qorabog'soy , Sherobod , I.F. Lomaevdan , G.V. Parfyonov , «Zarautsoy-95» , «Zarautsoy-98»

### ABSTRACT

*Kishilik jamiyatining ilk bosqichi bo'lgan tosh asriga oid tosh manbalar, matnlar, bitiklar, turli tasvirlar, rasmlar va ayni chog'da toshdan yasalgan mehnat qurollarining dastlabki namunalari odamlar ijodkorligining natijasidir. Inson tabiat mo'jizalarini va uning sir-asrorlarini tasavvur etish tufayli tirik jonzotlarga taqlid etishgan, ularning qiyofalarini yaratishgan. Ana shunday manzilgohlardan biri Zarautsoy bo'lib, O'zbekiston hududining Hisor tog' tizmasining janubiy-g'arbidagi Ko'hitang tog'ining yon bag'rida joylashgan daradagi ungir va kamar toshlariga ishlangan ibtidoiy san'atning nodir namunalari bo'lmish madaniyat maskanidir.*

Qadimiy ajdodlar yaratib qoldirgan bu osori-atiqalarni o'z bag'rida ming yillardan buyon asrab kelayotgan maskan Zaraut, Zarautsoy va Zarautkamar nomlari bilan yuritiladi. Zaraut - qishloqning nomi, turli buloq suvlaridan yig'ilib paydo bo'lgan va Zaraut qishlog'i ichidan oqayotgan soyni Zarautsoy deydilar. Olimu muxlislarni lol qoldirgan Zaraut rasmlari chizilgan g'orlarni mahalliy tilda kamar deb atashadi, shundan Zarautkamar nomi paydo bo'lgan. Zarautsoy oqib-oqib Qizilolma soyga qo'shiladi, ana shu ikki soy borib-borib Qorabog'soyga, undan o'tib Maydonsoyga va nihoyat Loyliqsoyga birlashib, Turkondaryo(Sheroboddaryo)ga quyiladi, u esa yo'lini Amudaryogacha davom ettiradi. Sherobod tumani Qizilolma (bu qishloq ham bir paytlar Zaraut deb atalgan) va Zaraut qishlog'i yaqinidagi Zarautsoy bo'yida toshga qizil kesak (bo'yoq) bilan solingan suratlar topilgan va bu tasviriy san'at yodgorliklari mezolit davriga oiddir. Unda chodir yopinib, o'ziga dum bog'lagan va o'q-yoy ko'targan ovchilar it hamda yovvoyi hayvonlar bilan birga tasvirlangan. Aftidan, qadimgi ovchilar ov qilinishi lozim bo'lgan hayvonlarni cho'chitmaslik uchun orqalariga dum bog'lab, chodir yopinib olgan bo'lsalar ajab emas. Bu dara Surxondaryoning o'tish va borish eng qiyin, eng mushkul bo'lgan Ko'hitang tog'lari etaklarida joylashgan bo'lib, qadimgi san'atning ajoyib hamda noyob yodgorliklaridandir.<sup>1</sup>

Bu dara Surxondaryoning o'tish va borish eng qiyin, eng mushkul bo'lgan Ko'hitang

1. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko'zglasida.T., 2001.

2. Yakubova . D. "Surxondaryo tarixi " Denov-2021

tog'lari etaklarida joylashgan bo'lib, qadimgi san'atning ajoyib hamda noyob yodgorliklaridandir. Shunday qaltis joyni, chiqish qiyin dara tepasidagi g'orni Zarautlik Rauf ismli o'n yashar bola qo'y boqib yurganida tasodif kashf etadi. Bu 1939 yilning bahori edi. Bir oylar chamasi o'tgach, topilma haqida xonadon a'zolari oilaning qadrdon do'sti bo'lib qolgan Ivan Fyodorovich Lomaevga aytib berishadi. Dovyurak izchiyovchi, to'g'rirog'i ovchi-o'lkashunos, ayni paytda giyohshunos, tabiatning cheksiz havasmandi I. F. Lomaev do'sti Vahob Davlatov va uning o'g'li Rauf bilan birgalikda kamarga borishadi. Uz navbatida I.F. Lomaev ko'rganlari xususida o'sha paytlari Termizdagi Surxondaryo okrug muzeyi direktori G.V. Parfyonovga xabar beradi. qizig'i, G.V. Parfyonov 1931 yili ilk bor Surxondaryoga ish bilan kelganida xataklik qariyalardan tog'ning qaysidir g'orlarida hayvonlar, odamlar surati chizilganligi va noma'lum bitiklar borligi haqidagi ma'lumotlarni yozib olgan, ammo o'shanda bu sirli g'orlarning qaerdaligini hech kim aytib berolmagan edi. Qolaversa, I.F. Lomaevdan ilgari ham kamar rasmlari bilan qiziquvchilar bo'lgan, ulardan biri 1912 yili suratlardan nusxa olishga harakat qilgai harbiy topograf Fyodorov bo'lgan. Yuqoridagilardan shu narsa aenki, ilgarilari ham bu noyob rasmlar bilan qiziquvchilarning bor bo'lganligi ehtimoliga zarracha shubha yo'q. Zarautsoy suratlari dastlab I.F. Lomaev tomonidan o'rganildi, keyinchalik G.V. Parfyonov rahbarligidagi ekspeditsiya ish boshladi va ochiq qoyatoshning antiqa qizil rangli rasmlarini suratga tushirdi, ko'chirmalar oldi, muhimi yangi suratli joylar aniqlandi. Zarautsoyni tadqiq etishda G. V. Parfyonov, A. Yu. Roginskaya, A. S. Kirillov, I. F. Lomaev, A. P. Ivanova, V. K. Sandul va Sh. Ismoilovlar katta ishlarni amalga oshirdilar. Hatto ekspeditsiya ishtirokchisi asli kasbi rassom A. Yu. Roginskaya «Zarautsoy» nomli risolasini rus tilida 1950 yili e'lon qildirdi. A.Yu. Roginskaya 1942 yili Moskvadan Surxondaryo viloyat teatriga rassom sifatida ishga jo'natilgan bo'lib, G.V. Parfyonov tomonidan ekspeditsiyaga jalb etilgan edi. Ayniqsa, keyingi yillarda Zarautsoy qoya rasmlari tanikli olim A. A. Formozov tomonidan puxta tahlil qilindi. <sup>2</sup>

Hatto ekspeditsiya ishtirokchisi asli kasbi rassom A.YU.Roginskaya «Zarautsoy» nomli risolasini rus tilida 1950 yili e'lon qildirdi. Roginskaya A.YU. 1942 yili Moskvadan Surxondaryo viloyat teatriga rassom sifatida ishga jo'natilgan bo'lib, G.V.Parfyonov tomonidan ekspeditsiyaga jalb etilgan edi. Ayniqsa, keyingi yillarda Zarautsoy koya rasmlari taniqli olim A.A.Formozov tomonidan puxta tahlil qilindi. Yaqinda vohadoshimiz, o'lkamizning fidoyi bir insoni Abdulla Xolmirzayev (1947) «Zarautsoy tilsimlari» (2003) nomli ilmiy-ommabop risolasini nashr ettirdi. Abdulla Xolmirzayevning bolaligi, yoshligi Zaraut qishlog'ida o'tgan, u bu tilsimli rasmlar haqida ko'plab afsona va rivoyatlar eshitib katta bo'lgan. «Zarautsoy tilsimlari»ni varaqlaymiz: «Zarautsoy rang tasvirini tushunish uchun G.V.Parfyonov ushbu asarlarni yaratgan odamlarni xayolan ko'z oldida namoyon etishga harakat qilib ko'rdi. U ba'zan kuni bo'yi tog'larda qolib ketardi. Kamar va o'yi-qamgaklar qidirib barcha joylarni kezib chiqdi, uzoq cho'qqilarga borib keldi. U Zarautsoydagi ibtidoiy odam hayotining barcha tafsilotlarini o'rgandi. Qayerlardandir shu joyga uzoq ajdodlarimiz- kroman'on(Fransiyadagi joy nomi)lar kelishdi. Zarautsoy san'at obidasi turgan joydan 80-100 chaqirimlar chamasi masofadagi Teshiktosh g'oridan neandertal bola skeleti topilganligini barchamiz yaxshi bilamiz. Neandertallar kroman'onlarga nisbatan 50-30 ming yillar ilgari yashab o'tganlar. <sup>3</sup>

Zaraut hududiga kelib san'at yaratgan kroman'onlar, ehtimol, teshiktoshlik ota-bobolarning avlodlaridan bo'lgandirlar. Lekin neandertallar hali san'atni bilmaganlar. Shu bilan birga, aytish joizki, toshlarga tasvirlash odati har qanday kroman'on odam to'dasiga ham xos

bo'lavermagan.» Muallif Zarautsoyda olib borilgan kuzatish ishlari natijasida pichoq vazifasini bajargan yassi chaqmoqtosh topilgani, Duldul ota g'oridagi madaniy qatlamlar tekshirilganda tosh davri ibtidoiy odamining istiqomat joyi bo'lganligini ko'rsatuvchi ashyoviy belgilar aniqlanganini to'liqlanib yozadi. Quyidagi satrlar ham shu kitobdan olindi: «Zarautsoydagi kabi qadimiy ibtidoiy san'at endi hech qachon qayta yaratilmaydi, U xuddi epos va <sup>2</sup>ertakchilik kabi o'z imkoniyatini ishlatib bo'lgan. O'z holicha go'zal, nafis va shu bilan birga yovvoyi ibtidoiy san'at eng qadimgi o'tmish merosimizning oliy namunasi sifatida doimo sizni bizni ohanrabodek o'ziga jalb etaveradi.» Shuningdek, muallif Zaraut nomi etimologiyasi xususida bahs yuritadi, aftidan Zaraut nomini bizningcha, «zar», «zara», «zarang» so'zlaridan qidirgan maqbulroq tuyuladi. Boisi, «zar» so'zida oltin va o't ma'nolari mavjudligi hech kimga sir emas, yana unda tovlanish mazmuni ham borligi aniq. Qolaversa, Zarautning talaffuzda Zaravut tarzida ekanini ham unutmashimiz lozim, bu esa uning tarkibida rabot so'zi borligini ma'lum ma'noda isbotlaydi. Shundan uning Zar rabot ekani aniqlanadi, uning esa Zaravut bo'lib ketishi hech gap emas, sababi «b» tovushining «v»ga o'tish hodisasi tilda mavjud hodisadir. Chunki, muallifning o'zi ta'kidlaganidek, Zarautning qator buloqlari nomi bilan bog'liq mavzularida qizil, sariq, oq, malla rangli toshlar va yana bir xil toshlar quyosh nurida zar kabi tovlanar ekan. Zarautsoy suratlari orasida yovvoyi buqalarni ovlash manzarasi tasvir etilgan suratlar ayniqsa muhimdir. <sup>4</sup>

Zarautsoy darasidagi 200 dan ortiq rasmlarda odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Hayvonlar: yovvoyi buqa, it, tulki, yovvoyi cho'chqa, burama shoxli echki, jayron, tog' echkisi, hashorat, turli ov buyumlari: o'q-yoy, nayza, o'roqsimon qurollar, niqoblangan odamlar va boshqa o'ziga xos tarzda hayotiy qilib chizilgan rasmlar. Suratlarda tasvirini topgan o'q-yoy va xonaki itlar ko'magida ov qilish sahnalari ularning mezolit davriga oidligini bildiradi, degan xulosaga keladi. A.A.Formozov, zero o'q-yoy va uy iti mezolit davrigacha noma'lum ekanini fan allaqachon tasdiqlagandir. Akademik B.G'afurov bo'lsa Zaraut suratlarini neolit-eneolit davriga oidligi haqida fikr bayonini beradi. Zarautsoy darasi ibtidoiy san'atning noyob yodgorligi sifatida uning obidalarini muhofaza qilish «qizil kitob»ga kiritilgan. G.V.Parfyonov Zarautsoy suratlarining yuqori paleolit davriga oid deb belgiladi. Eng so'nggi namunalar esa temir bronza davriga to'g'ri keladi. Zarautsoy kamaridagi rasmlar bir necha asrlar davomida chizilib, ajdodlarimizning ov bilan bog'liq urf-odatlarini, an'analarini o'zida aks ettirgan ezgu niyatlari, tabiatga hurmati, vatanga muhabbat his - tuyg'ulari aks ettirilgan edi. <sup>5</sup>

Vatanimiz tasviriy san'atining ilk durdonasi bo'lgan Zarautsoy qoya toshlari suratlari rasmlar, tasvirlar millatimizning moddiy-ma'naviy madaniyatining bebaho xazinasini va bu tarixiy obida yuksak san'at yodgorligi hisoblanadi. Eng muhimi ushbu tasviriy san'at namunalarini ajdodlarimizning ilk yozuvini vujudga kelishiga asos solishiga yo'l ochib bergan ma'naviy yutuqdir. Akademik A.P.Okladnikovning fikricha, ushbu noyob yodgorlik o'sha davrda chizilgan suratlarni qaysi usulda yaratilganligini, bu san'at asarlarining ilmiy tarixiy ahamiyatini aniqlash masalasida tarixchi-arxeolog olimlarning jiddiy e'tiborini qaratdi.

---

3. Xolmirzaev A. Zarautsoy sirlari. T., 2003.

4. Annaev T. Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar T., 1997.

Natijada bu borada ma'lum ilmiy-amaliy natijalarga erishildi, jiddiy ilmiy xulosalar yasaldi, o'z ahamiyati jihatidan e'tiborga molik fikrlar o'rtaga tashlandi. Ovchilar kamon va nayzalari bilan qurollangan, buqaning ko'kragiga nayza sanchilgan, kamondagi o'q unga qaratilgan. Odamlarning ba'zilari teri yopingan va dumlari bor, bizga noma'lum bo'lgan qandaydir afsonaviy, ehtimol, sehriy tasavvurlar bilan bog'liq hayvonlar surati ham o'yilgan. Zarautsoy suratlari asosida Sherobodda insoniyatning ilk bosqichi yashab o'tganligi to'g'risida ko'plab qimmatli materiallar ilmiy-arxeologik jihatdan to'la asoslab berildi. Zarautsoy manzilgohida yashovchi ibtidoiy odamlar tasviriy san'atni bo'lajak ovning baroridan kelishiga yordam beradi deb tushunganlar, insonga bo'ysunmaydigan kuchlarga ta'sir etuvchi vosita deb bilganlar va tasviri tushirilgan hayvon yuragiga nayza sanchib, hayotda ham ovni g'olibona yakunlash mumkin deb ishonganlar.<sup>6</sup>

Zarautsoy qoyasining tekis joylarida qalpoq kiygan kishilarning shakli ko'zga aniq tashlanadi, ular yovvoyi buqa yoniga yashirilib borib unga nayza otadilar. Ovchilarning qandaydir sehriy kiyimlari va marosimlari bo'lgan, ular o'zlariga dum yopishtirib olganlar, qo'llarini keng yozib kiyimlarining etaklarini qanot singari silkitganlar. Qoyalardagi hayvonlarning tasviri juda jonli chiqqan, masalan ov sahnalarining birida yovvoyi ho'kizni 19 ovchi kurshovga olib turibdi, boshqa ov harakatlari ifodasini topgan ikkita manzarada esa qochayotgan hayvonlar va ularni ta'qib etayotgan nayzachilar tasvirlangan. Boshqa bir tasvirda bo'lsa, jon holatda<sup>3</sup> qochayotgan ho'kizlar bilan birga jayronlar chopmoqda, hatto jayronlardan birining tanasiga qadalgan nayzani aniq ko'rish mumkin. Xulosa shuki, ibtidoiy rassomning diqqat-e'tibori birgina ho'kizga qaratilmasdan, balki tog' echkisi, sayg'oq, jayron, burama shoxli echki va boshqa hayvonlarga ham qaratilgan ekan.<sup>7</sup>

Zarautsoy qoyalarida chizilgan 246 dan ortiq ibtidoiy rasmlarning hammasi bir vaqtda chizilmagan. Ba'zi tasvirlarning bir-birining ustiga qalashib ketganligi ham buni tasdiqlaydi. Zarautsoydagi dastlabki tasvirlar mezolit (o'rta tosh) davrining oxirlariga oid bo'lib, taxminan bundan 10 ming yillar muqaddam chizilgan. Qoyalardagi keyingi tasvirlar bronza davriga oid bo'lib, miloddan avvalgi III-II ming yilliklarning mahsulidir. Zarautsoyda topilgan tasvirlar mamlakatimizdagi eng qadimiy rasmlar majmuasidir. Odamlar va hayvonlarning ana shu rasmlarida badiiy tasvir inson mehnati bilan, uning yashash uchun kurashi bilan bog'langan. Bu san'at ibtidoiy odam ongida vujudga kelgan qiyofalarni o'zining ibtidoiy tasviriga, qonunlariga ega bo'lgan asarga aylantirish mahoratiga asoslangan. Zarautsoy mamlakatimizda birinchi marta san'atshunoslik qo'riqxonasiga aylantirilgan noyob manba sifatida ham juda ardoqlidir. Ammo yuqoridagilarga qaramasdan, Zarautsoy osori atiqalarini saqlash sohasidagi ishlarni ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Hatto «Zarautsoy-95» va «Zarautsoy-98» ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlarida suratlarni kelgusi avlodlar uchun asrab qolish haqida fikrlar yuritilganiga qaramasdan, to hozirgacha mutlaqo qarovsiz va himoyasiz qolayotgan Zarautsoy qoya rangli tasvirlarini amalda muhofaza etish lozim ko'rinadi. Ibtidoiy odam tomonidan misning

5. Azimov M. Termiz tarixi, Termiz, «Jayhun», 2001.

6 Aminjonova T.N. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T., «O'qituvchi», 1977.

7 Berdiev X., Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar, T., 1991.

8 Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V., Severnaya Baktriya Taxaristan problemi istorii i kulturi, T. «Fan», 1990.

o'zlashtirilishi natijasida misdan yasalgan mehnat va ov quollarining takomillashuviga yo'l ochildi. Dastlabki o'troqchilikka asoslangan qishloqlarning, yerto'la va chaylali uylarning paydo bo'lishiga imkon tug'ildi. Juft nikohli oilalarning tarkib topishi tufayli avlod-ajdodlar ruhini pok tutish, ruhlarga sig'inish, dehqonchilik va chorvachilikning alohida xo'jalik bo'lib rivojlanishiga yo'l ochildi.<sup>8</sup>

#### References:

1. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko'zgasida.T., 2001.
2. Yakubova . D. "Surxondaryo tarixi " Denov-2021
3. Og'Abek Bahridin Ogli Mamayusupov, & Quvonchbek Dilmurod O'G'Li Bozorov (2022). BUYUK IPAK YO'LI-MULOQOT VA HAMKORLIK YO'LI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (1), 115-122. doi: 10.24412/2181-2454-2022-1-115-122
4. Dilmurod o'g'li, B. Q. (2021). A NEW STAGE IN DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND TAJIKISTAN. Eurasian Journal of Academic Research, 1(6), 64-66.
5. Panjiyev, J. T. O. G. L., Bozorov, Q. D. O. G. L., & Xolboyev, J. L. O. G. L. (2022). Artificial irrigation system during the reign of Amir Temur and the Temurids. Science and Education, 3(1), 154-156.
6. Nazirov, B. (2020). "IMOMUL HUDA – HIDOYATGA BOSHLOVCHI IMOM. Wydawnictwo Naukowe "iScience".
7. Nazirov, B. (2022). Aburazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majma ul bahrayn" asarida tarixiy shaxslar talqini. "Lesson press" Nashriyoti.
8. Nazirov, B. (2022). Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shoxrux va Mirzo Ulug'bek. Risola. "Lesson press" Nashriyoti.
9. Xolto'rayevich, M. A. (2022). The Last Period in the Resistance Movement in Surkhandarya and the Repression of the National Forces. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 17-20.
10. Менглибоев, А. Х. (2021). Сурхондарё округида миллий кучларнинг қатағон қилиниши. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).
11. Ibragimovna, K. N., & Dilmurod o'g'li, B. Q. (2022). Karakalpak Baxshi and the Art of Music. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(5), 89-92.
12. Nazirov, B. (2022). O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. TAFAKKUR AVLODI
13. Назиров, Б. С. (2021). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-3).
14. Yakubova, D. (2022). SURXONDARYO TARIXI. LESSON PRESS.
15. Yakubova, D. (2021). Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлиги ва унинг натижалари. Tafakkur Avlodi.